

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Zoxidjon Rayimalievich Mirzaliev

O'zbekiston Milliy Universiteti

Harbiy tayyorgarlik o'quv markazi katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10067383>

Annotatsiya: XXI asrga kelib, Davlatlar xavfsizligiga tahdid soladigan ehtimoliy xavf, tabiatda ro'y berayotgan ofatlar, hamda turli xil axborot xurujlari, dunyoning ko'p mamlakatlari aholisi oilaviy inqirozga uchrangani, farzandlar tarbiyasi batamom izdan chiqqani, kattalar va bolalar o'rtasidagi munosabatlar asliy o'zanidan chetga chiqib ketgani, yurtimiz aholisining tinch va osoyishta hayotini ta'minlashda har tomonlama o'z hissasini qo'shishga qodir bo'lgan va Respublika aholi sonining salmoqli ulushini, mamlakatimiz aholisining 18,9 million nafarini yoki 54 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasining rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Mazkur ishda yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha mavjud tizim qiyosiy tahlil qilinib, uning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha takliflar berildi.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, yoshlar, tarbiya, vatan tuyg'usi, odob-axloq, uyushmagan yoshlar.

CURRENT PROBLEMS OF EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF PATRIOTISM

Zoxidjon Rayimalievich Mirzaliev

Senior instructor of the Military Training

Center National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan

Annotation

By the 21st century, potential threats to the security of States, natural disasters, and various information crises, the population of many countries of the world is experiencing a family crisis, the upbringing of the children is completely derailed, the relationship between elderly people and children is fundamentally changing, patriotic education of young people under age of 30 who are able to contribute to the peaceful life of our country's population and who are a significant part of the population of the Republic, 18,9 million people or 54% of the population of our country serves as a basis for its development. In this work, a comparative analysis of the existing system of patriotic education of young people was made, and suggestions were made for using the necessary opportunities for its comprehensive development.

Key words: patriotism, youth, education, sense of homeland, behaviour, unorganized youth.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ПАТРИОТИЗМА

Зоҳиджон Райималиевич Мирзалиев

Старший преподаватель учебного центра военной подготовки
Национального университета Узбекистан имени М. Улугбека.

Аннотация

в XXI веке одним из возможных угроз безопасности государств, таких как стихийные бедствия, различные информационные кризисы, население многих стран мира переживает семейный кризис а именно воспитание детей, отношения родителей и детей. Данная проблема принципиально меняет патриотическое воспитание молодежи в возрасте до 30 лет, способной внести свой вклад в мирную жизнь населения нашей страны которая служит основой ее развития и составляет значительную часть населения Республики (18,9 млн человек или 54% населения). В данной работе проведен сравнительный анализ существующей системы различных методов патриотического воспитания молодежи, а также даны предложения по использованию необходимых возможностей для ее всестороннего развития.

Ключевые слова: патриотизм, молодежь, воспитание, чувство Родины, поведение, неорганизованная молодежь.

KIRISH.

Insonning eng buyuk, ezgu va muqaddas vazifasi, avvalo, o'z oilasi, Vatani va xalqini munosib himoya qilishdan iboratdir. Bu borada har bir o'g'lonning bilim va malakasi, aqliy salohiyati, ruhiy tayyorgarligini oshirish, ularda vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish o'ta muhim ahamiyatga egadir. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan vatanparvarlik to'g'risida: "Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi" deb berilgan ta'rif, vatanparvarlikning tub mohiyatini anglatadi. Vatan – insonning tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan, bolalik, yoshlik davri o'tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo'msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo'lida xizmat qilish, uni yomon ko'zdan, qora kuchlardan himoya qilish, uning sha'nini yuqori ko'tarish tuyg'usi insonning fitratiga qo'shib yaratilgan. Bu tuyg'u nafaqat insonda, balki boshqa maxluqotlarda ham mavjud. Baliq suvga, hayvon o'zining iniga, hasharot uyasiga intiladi. O'sha aqli yo'q jonivorlar ham, hasharotlar ham o'zining uyini taniydi, uni quradi, unda jufti bilan yashab, naslini davom ettiradi, zarur paytda uni himoya qiladi. Shunday ekan, aql-u zakovat, tafakkur ato etilgan, borliqdagi mavjudotlarning gultoji bo'lgan insonda esa bu tuyg'u yuksak darajada rivojlangan bo'lishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonini, kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy demokratik davlat qurishdek ezgu maqsadlar ro'yobini

yoshlar ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Yoshlarni zamon talablari darajasida ta’lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo‘lishi, shu aziz Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o‘z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir. Vatanparvarlik — kishilarning ona yurtiga, o‘z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha, u barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlardan biri.

Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o‘z vatanlari taqdiri bilan bog‘liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o‘zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi. Inson ulg‘aygan sari uning Vatan haqidagi tushunchalari ham kengayib boradi. Yurtimizda tug‘ilib-o‘sgan har bir inson “Vatanim” deganida o‘z uyini, qishlog‘ini yoki shahrini emas, balki O‘zbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa Vatan tuyg‘usining, vatanparvarlikning xalqimiz qalbidagi ifodasidir. Vatan tuyg‘usi — bu aziz va go‘zal yurtimizga hurmat va sadoqatli bo‘lish. Vatan tuyg‘usi — bu Turon, Movarounnahr, Turkiston va hozirda O‘zbekiston deya atalgan zaminda yashab kelayotgan xalqimizning oltin merosini, uning tarixini o‘rganishga intilishdir. Yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi sifat darajasida bo‘lishining omillarini har kim o‘zicha sharhlaydi. Kimdir ulug‘ muallimlar tajribasiga ko‘ra tarbiya berishni tavsiya etadi. Boshqasi ota-ona, avvalo o‘z ibrati bilan tarbiyalashi lozim deb hisoblaydi. Birov bog‘cha va maktabdagi tarbiya tizimini foydali hisoblasa, yana kimdir bolani yomon ulfat va muhitdan himoya qilishni asosiy masala deb biladi. Lekin ko‘pchilik bolaning solih, es-hushli, tarbiyali, itoatgo‘y, vatanparvar bo‘lib ulg‘ayishining bosh sabablari haqida o‘ylab ham ko‘rmaydi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning ongida “Vatan tuyg‘usi” deb nom olgan buyuk bir atamani shakllantirish, u to‘g‘risida tushuncha paydo qilish bir necha omillar ta’sirida yuzaga keladi. Shulardan biri yoshlar tarbiyasi. Yoshlar tarbiyasi haqida so‘z borar ekan, ularga tegishli umumiy odob-axloqlar haqida Imom G‘azzoliyning quyidagi so‘zlarini yodga olish maqsadga muvofiq, ya’ni: “Yoshlar tilla taqinchoq va turli zebu-ziynat taqmasliklari lozim. Ular o‘tirish, turish, salom berish odoblariga rioya etishlari, o‘zlaridan kattalar huzurida oyoqlarini chalishtirib o‘tirmasliklari, sergap va so‘kuvchi bo‘lmasliklari, behayo so‘zlarni aytmasliklari, xususan, yomon xulqli tengdoshlariga aralashishdan ehtiyot bo‘lishlari kerak”. Ushbu aytilgan fikrlar, Vatan tuyg‘usini tarbiyalashni oiladan boshlashimiz zarurligiga ishora qiladi. Barkamol avlodni shakllantirishda oilaning o‘rni bo‘lak, chunki, inson avvalo oila bag‘rida unib-o‘sadi va shaxs sifatida shakllanadi. Buyuk jadidchi, mutafakkir Abdurauf Fitrat o‘zining “Oila” asarida: “Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog‘liqdir.... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo‘ladi” deb yozgan. Oiladagi ta’lim-tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar keyinchalik odamlar orasida — mahalla-ko‘yda, ta’lim muassasalarida sayqal topadi. Oilada farzandlarni ma’nan va jismonan barkamol, vatanparvar etib tarbiyalash uchun ota-onalar ham o‘z ma’naviyatlarini doimo boyitib borishlari, farzandlarini ham o‘z mamlakati tarixi, madaniyati, adabiyoti va

san'ati, me'morchiligi, milliy qadriyatlari haqida to'la tasavvurga ega bo'lishga mas'uldirlar. Buning uchun xalq og'zaki ijodidan tortib, zamonaviy tarbiya tajribalaridan ham unumli foydalanishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi. Maktab yoshidagi o'quvchi yoshlarning ongida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirib borish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" PQ-241-son Qarorida: "...o'quvchilar ongiga vatanparvarlik tuyg'ularini va milliy qadriyatlarni singdirish, boy madaniy-tarixiy meros, milliy urf-odatlar, buyuk ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rganishlari uchun sharoitlarni yaratishda sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlarni keng jalb etish" vazifasi qo'yilgan. Vatanimiz va xalqimizning ertangi kunini, jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini belgilovchi, uni himoya qilish uchun kerak bo'lsa o'z jonini fido qilishga tayyor turadigan barkamol, vatanparvar avlodni voyaga yetkazishdek ulug' vazifani "oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorligisiz hal etib bo'lmaydi desak, ayni haqiqatni gapirgan bo'lamiz. Vatanparvarlik tushunchasining negizi bolaning kindik qoni to'kilgan yerdan boshlanadi. Vatanparvarlik tuyg'ularini singdirish bosqichlarini shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'lish mumkin: maktabgacha bo'lgan davr, maktab davrida, maktabdan keyingi davr, oliy ta'lim muassasasida, muddatli harbiy xizmat davomida, shartnoma asosida harbiy xizmatni o'tash davomida. Maktabgacha bo'lgan davr va maktabning boshlang'ich sinflarida, ya'ni 1-4-sinflarda yosh avlod ongida vatanparvarlik qirralarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodidan foydalanish, bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyat sifatida muhim manbaa bo'lib xizmat qila oladi. Xususan, ertak va dostonlardagi obrazlar bolaning jismonan baquvvat, botir, qo'rqmas, shijoatli va eng muhimi o'z Vatani va yurti uchun jon fido qilishga tayyor farzandlarni yetishtirishda juda muhim omil hisoblanadi. Jumladan, Alpomish, Rustam, Siyovush, Shiroq, To'maris obrazlari bolalarni juda tez o'ziga rom qilib qo'yadi va ularning ma'naviy dunyosini boyitadi. Maktab davrining 5-9-sinfida yoshlarning ongida vatanparvarlik hissini shakllantirish maqsadida, yoshlarning o'z Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, salomatligini mustahkamlash, o'z kuchi, bilim va salohiyatini shakllantirish davri hisoblanadi va bunda asosan sport turlari va fanlar bo'yicha to'garaklar hamda qo'shimcha mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda ayniqsa sportning turli xil yo'nalishlari, fan olimpiadalarida faxrli o'rin egallagan yoshlar to'g'risida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoq orqali ma'lumotlarni efirga tizimli ravishda uzatib borish, ayniqsa chempionlar bilan, jumladan imkoniyati cheklangan, paraolimpiada g'oliblari bilan jonli muloqotlar uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu o'rinda sharqona tarbiyaning yana bir usuli, ya'ni ustoz-shogird an'analaridan, xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligini, o'ymakorlik (ganch, mis va yog'och o'ymakorligi), zardo'zlik, kulolchilik, milliy liboslar tikish kabi mashg'ulotlar ham yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda albatta milliylikka, urf-odatlarimizning davomiyligiga Vatanga bo'lgan munosabatning ijobiy shakllanishi uchun xizmat qiladi. Maktab davrining keyingi bosqichida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy bosqichi hisoblanadi. Chunki ushbu davrga kelib yoshlar kelajakda kim va qaysi kasb egasi bo'lish haqida qaror qabul qiladigan davr hisoblanadi. Ushbu yoshda vatanparvarlik his-tuyg'ularini aniq misollar orqali shakllantirish zarur.

Mamlakatimiz tarixida bo‘lib o‘tgan barcha qurolli to‘qnashuvlar, mahalliy urushlar va mustaqillikka erishish davrida qurbon bo‘lgan harbiylarning ko‘rsatgan jasorati va matonati to‘g‘risida, xususan, o‘z aql-idroki bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg‘oniy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek singari o‘nlab qomusiy mutafakkirlarni yodga olish, Vatanni himoya qilib, Vatan deya fido bo‘lgan To‘maris, Shiroq, Spitamen, singari yuzlab sheryuraklarni eslash, mustamlaka tuzumiga qarshi bosh ko‘targan Toshkent, Jizzax, Andijon qo‘zg‘olonlari, Dukchi Eshon xotirasini unutmashlik, yigirmanchi, o‘ttizinchi, qirqinchi, elliginchi va nihoyat saksoninchi yillarda xalqimizga qarshi uyushtirilgan qatag‘onlarda qamoq va surgun azoblarini boshidan kechirgan va halok bo‘lgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir singari minglab millat gullarini unutmashlik, Ikkinchi jahon urushida fashizmga qarshi mardona jang qilgan vatandoshlarimiz yodini ehtirom bilan eslash orqali ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, ko‘zlangan maqsadga erishishda katta xizmat qiladi. Shuningdek, olti oylik qamaldan keyin Xorazmshohlar poytaxti Urganch qaxramonlari so‘nggi hal qiluvchi jangga tashlanganida, 76 yoshlik jahonga dong‘i ketgan olim Najmiddin Kubro shahar mudofaachilariga boshliq bo‘lganliklari, jangchilarga keskir qilich keltirib berganlarida u vatan tug‘ini qo‘lga olganliklari, qahramon mudofaachilarni tengsiz jangda mag‘lub qilgan mo‘g‘ullar Najmiddin Kubroning muborak qo‘llaridan vatan tug‘ini ola bilmaganliklari, bosqinchilar qaxramonning har ikkala qo‘lini kesib Chingizxonga olib borganda u hayratga tushgan damlarni esga olish orqali Vatan himoyasi uchun yoshu-qari, oddiy fuqarodan tortib turli kasb egalari, olim-u fuzalolar hammasi bir xil ma’sul ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida Sariosiyo va Uzun tumanlari tog‘li qishloqlari aholisi tinchligini buzgan ichki dushmanlarga, Toshkent viloyatida terrorchilik harakatlariga qarshi zarbalar berishda halok bo‘lgan harbiylar – Sayyor Sa’dinov, Alisher Salimov, Boburjon G‘aniev, Ma’rufjon Rajabov, Ulug‘bek Barnoyev va boshqa qahramonlarimiz to‘g‘risida, ularning yaqinlari bilan muloqotda bo‘lish orqali tegishli xulosalar chiqarish vatanparvarlik tarbiyasining cho‘qqisini tashkil etadi. Oliy harbiy ta’lim muassasalarida, muddatli harbiy xizmat va shartnoma asosida harbiy xizmatni o‘tash davrida vatanparvarlik tarbiyasi tegishli normativ hujjatlar asosida tashkil etiladi va olib boriladi. Vatanparvarlik tuyg‘ularini singdirish va shakllantirib borish murakkab bo‘lgan mamlakat aholisining yana bir qatlami, uyushmagan yoshlar bo‘lib, son jihatdan ular ham mamlakat aholisining sezilarli ulushini tashkil etadi. Bu toifadagi yoshlar tayinli ish va o‘qish joylariga ega bo‘lmaganligi, ayniqsa ular ichida turli xil oqimlarga qo‘shilib qolish, qoidabuzarliklar va jinoyatlarni keltirib chiqarishga moil xarakterga ega bo‘lishlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Ushbu qatlamdagi yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish boshqa qatlamdagi yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdan tubdan farq qiladi. Uyushmagan yoshlar bilan tizimli ravishda yuzma-yuz muloqot olib borish imkoniyatining cheklanganligi yoki umuman yo‘qligi vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha yoshlar ongiga singdirilishi kerak bo‘lgan ma’lumotlar, ularning eng ko‘p tashrif buyuradigan manzillaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Shunday manzillardan biri internet tarmog‘i hisoblanadi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sherzod Shermatovning «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi

bilan belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida»gi masalani muhokama qilingan kun tartibidagi masala yuzasidan deputatlarning savollariga bergan javobida mamlakat aholisining internet xizmatidan foydalanuvchilari soni 31 milliondan ortganligini, shundan mobil internet foydalanuvchilari soni 29,5 millionni tashkil etganligi to'g'risida ma'lumot berilgan. Yoshlar tashrif buyuradigan keyingi manzil, respublikamizda kundun-kunga soni ortib borayotgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan masjidlar hisoblanadi. 2022-yilning yanvar, sentyabr oylarida O'zbekistonda 11 ta yangi masjid davlat ro'yxatidan o'tkazildi va ularning soni 2112 taga yetdi. O'z navbatida, 2022-yilning 9 oyi davomida 49 ta masjid qayta qurilib, 35 tasi qayta ta'mirlangan. Bundan tashqari, hozirgi kunda respublikada 325 ta masjidda qurilish va ta'mirlash ishlari olib borilmoqda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida odamlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash asosiy vazifa ekanligini bayon etdi. Ushbu maqsadni amalga oshirish, birinchi navbatda, butun dunyo jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazish eng muhim vazifa hisoblanadi. Zotan, islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi. Mana shu muhim vazifalarni amalga oshirish uchun O'zbekistonda bir qancha mega loyihalarga asos solindi, bular Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi. Ushbu markazlarda ilm va ma'rifat dini bo'lgan islom Markaziy Osiyoda jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan allomalarning yetishib chiqishiga zamin yaratgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Xorazmiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug'bek kabi ulug' zotlarning g'oyat boy merosini asrab-avaylash va o'rganishga, islomning mohiyati bag'rikenglik va ma'rifat to'g'risidagi ta'limot ekanini keng yoyishga xizmat qiladi va yoshlarning qalbida Vatanga, uni ko'z qorachig'idek asrash kabi ulug' fazilatlarning shakllanishiga sabab bo'ladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Dunyo globallashuv tomon odimlamoqda, uzoq masofalar tobora yaqinlashmoqda, boshqa tomondan esa fan va texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, inson hayoti shiddat bilan o'zgarimoqda. Biroq iqtisodiy va texnologik rivojlanish insoniyat oldiga yangi muammolar, yangi masalalarni ham qo'yimoqda. Azaldan davom etib kelayotgan jaholat, insoniyat taraqqiyoti uchun asosiy tahdidlardan biri bo'lib qolmoqda. Ayni paytda "ommaviy madaniyat", "jinsiy erkinlik", tarki dunyochilik, internetga qaramlik holatlari ham borgan sari insoniyat oldidagi jiddiy muammolar qatoridan joy olmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan tahdidlar yoshlar ongiga singib borishining oldini olish, yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi hozirgi kunda kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish bor imkoniyatlardan, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlab to oliy ta'lim muassasalarida mutaxassisliklar bo'yicha o'qitilishi nazarda tutilgan fanlar qatorida, vatanparvarlikka undovchi va yoshlarning qalbida bir umr muhurlanib qoladigan vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda, ta'lim va tarbiyada qo'llaniladigan barcha uslub hamda usullardan o'quv jarayonida samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'lim muassasalaridan tashqarida bo'lgan yoshlarning

qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish asosan ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari, masjidlarda o'qiladigan mav'izalardan, shoir va yozuvchilarning vatanparvarlik to'g'risida yozgan asarlaridan foydalanish o'rinli bo'ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashtirish sharoitida, xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan kuch va vositalarni to'liq safarbar qilish, jumladan mamlakat aholisi sonining salmoqli ulushini tashkil qiladigan yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasini talab darajasida amalga oshirish uchun, yoshlarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni inobatga olishni taqozo etadi.

TAKLIF:

1. Yoshlarni maktab davridan boshlab ilmga, ayniqsa chet tillarini o'rganish va kompyuter texnologiyalari hamda kasb - hunarga, milliy hunarmandchilikka, sportga nisbatan qiziqish uyg'otish natijasida, barkamol vatanparvar insonlarni voyaga yetkazish orqali ishsizlikning sonini kamaytirishga zamin yaratish.

2. Davlat tomonidan yoshlarga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanishda, ta'lim olish hamda ishga joylashish jarayonlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan korrupsion holatlarga raqamli texnologiyalarni tadbiiq qilish orqali chek qo'yish.

3. Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi eng ta'sirli tele ko'rsatuv va radioeshittirish, internet sahifalari, yozilgan asarlar, masjid imomlarining mav'izalari konkurs asosida saralanib, yil yakunida moddiy jihatdan rag'batlantirib borilishini yo'lga qo'yish.

4. Vatan ozodligi uchun jon fido qilgan vatandoshlarimiz va ularning oila a'zolariga davlat tomonidan beriladigan imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari. - Toshkent. "Yangi O'zbekiston" 2021-yil 19-yanvar.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/5841063>.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 11-maydagi "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-241-son Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 4-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasi". PQ-3898-son Qarori.

5. Fitrat. "Oila". - T., "Ma'naviyat", 1998. - B.8.

6. Ramatov J. Yoshlarda vatanparvarlik fazilatini shakllantirish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy vazifasi. "Globallashtirish sharoitida vatanparvarlik tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy texnologiyalari". Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasi. – Toshkent, 2019, 129-131-
betlar.